O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI PAXTAOBOD TUMANI HOKIMINING

FARMOYISHI

Paxtaobod tuman, Amir Temur ko‘chasi 39-uy

2024 - yil 3 - oktabr 123-1-25-F/24 Paxtaobod tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-868-sonli Qonun talablari asosida Toshqo‘rg‘on mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi “Madaniyat” chegara bojxona postiga kirish-chiqishini tartibga solish maqsadida chegara bojxona hududiga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 3.1 “Kirish taqiqlangan” hamda chegara bojxona binolari oldiga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish va belgilangan chiziqlar chizish, “Madaniyat” chegara bojxona postining 2024-yil 6-mart kungi 3/26-00005-sonli xatiga, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan:

1. “Madaniyat” chegara bojxona postining 2024-yil 6-mart kungi 3/26-00005-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshqo‘rg‘on mahalla fuqarolar yig‘in hududidagi “Madaniyat” chegara bojxona posti oldi qismi hududiga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 3.1 “Kirish taqiqlangan” hamda ma’muriy binosi oldiga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish va belgilangan chiziqlar chizishga ruxsat berilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (Sh.Tursunov.)ga yo‘l belgilarini amaldagi qonunlar asosida belgilangan joylarga sifatli qilib o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Ushbu farmoyishni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Xojimatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Babayev**